

NUTQ RIVOJLANISHIDA TEZ AYTISHLARNING O‘RNI

Xaytboyeva Muxlisa

UrDU Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni

o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar talaffuzini to‘g‘ri rivojlantirishda tez aytishlarning ahamiyati misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tez aytish, talaffuz, tovush, so‘z, so‘z birikmasi, nutq.

Аннотация: В данной статье на примерах анализируется значение

быстрого произношения в правильном развитии детского произношения

Ключевые слова: быстрая речь, произношение, звук, слово, фраза, речь

Annotation. In this article, the importance of rapid pronunciation in the correct development of children's pronunciation is analyzed with the help of examples.

Keywords: speaking quickly, pronunciation, sound, word, phrase, speech.

Bolalik davrida muloqotning qanday shakllanganligi kishining umri davomida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli qanchalik muhimligi inkor qilinmaydigan haqiqat bo‘lgani kabi uning nutqi rivojlanishi ham ijtimoiy sharoit mahsulidir. “Ijtimoiy sharoit, - deb yozadi V.D.Bondaletov - xalq yashayotgan aniq tarixiy sharoit – ya’ni zamondir. U doim xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishi darajasiga bog‘liqdir”[2].

Masalan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy 26035 ta yangi so‘z ishlatgani va bu borada u jahonning ko‘zga ko‘ringan yirik vakillarilaridan bir qancha ko‘p yangi so‘zlarni qo‘llagan. Shoiring bunday natijaga erishishining eng birinchi sababi bu uning G‘iyosiddin xonadonida ya’ni saroy amaldori xonadonida tug‘ilgani, uning xonadonida tez-tez majlislar bo‘lgani va unda yosh Alisherning ham ishtiroki deb keltirish mumkin. Shoир tarjimayi holi bilan tanishar ekanmiz, uning 4-5 yasharlik vaqtida F.Attorning “Mantiq-ut tayr” asarini o‘qigani va hatto yod olganiga va umri oxirida unga javob tariqasida “Lison-ut tayr” asarini yozganiga guvoh bo‘lamiz. Demak, shaxs nutqining shakllanishi va rivojlanishida u yashayotgan muhit va yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Zero, har qanday bino poydevordan ko‘tarilgani kabi yosh bolaning nutqi

shakllanishida tez aytishlarning o‘rni va rolini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Xalqimizning beba ho mulki hisoblangan o‘zbek folklori qadim zamonlardan beri og‘izdan-og‘izga o‘tib xalqimiz bilan birga yashab kelmoqda. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi qadimiyo so‘z san’ati sifatida nafaqat chuqur g‘oyaviyligi, yuksak badiiyligi, balki mazmundagi yorqinlik, tildagi soddaligi bilan ham ajralib turadi. Folkloarning o‘xhash va farqli xususiyatlari hisobga olinib maqol, topishmoq, doston, askiya, lof, latifa va hokazo turlari shakllangan bo‘lib, shulardan biri tez aytishlardir. Qadimda “Tutal”, “Chalg‘ituv”, “Chalish”, “Adashish” atamalari bilan mashhur bo‘lgan tez aytishlar ayrim nutq tovushlarinng ko‘p qaytarilishi yoki so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. “Tez aytishlar ma’lum so‘zni, so‘z birikmasini yoki tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga, nutqini o‘stirishga, o‘qish sur’atini oshirishga, shu bilan birgalikda ko‘p raqamlar sonlarni xotirada mustahkamlashga o‘rgatuvchi janr hisoblanadi. Qadimgi qoidalarga binoan tez aytishni bir nafas olish bilan aytish talab qilingan”. [3]

Tez aytishlardan samarali foydalanish bolalarning nutqini ravon qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi va boshlang‘ich sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir. Chunki bolalarning hozirgi zamon talablari asosida jamiyatimizda faolligini ta’minlashda nutq ravonligining o‘rni beqiyos. Nutq insonlar aro aloqa vositasi bo‘lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko‘nikmalarini puxta egallashga o‘rgatish zamon talabidir. Quyida nutq ravonligiga ta’sir qiluvchi ayrim tez aytishlar xususida to‘xtalamiz.

Erkin egatga ertachi ekinni ertalab ekdi [4]

Mazkur tez aytishga e’tibor bersak, “e” unlisining takror qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. “e” unlisini talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladigan bolalarning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda foydalanish mumkin. Ma’lumki, qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi nutqida “e” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar “ye” tarzida talaffuz qilinidi. Adabiy tilda so‘zlashishi qiyin bo‘lgan qipchoq lahjasi vakillari uchun ushbu tez aytish samarali hisoblanadi.

Tez aytish bolanig aynan qaysi unli yoki undosh tovushlarni aytishda qiyinalishiga qarab tanlanadi. Masalan:

Ruxsor Ra’nodan ranjidimi?

Ra’no Ruxsordan ranjidimi?

Tez aytish “R” undoshi talaffuziga bag‘ishlangan. Bilamizki, ko‘pchilik bolalarda “r” tovushini “y” yoki “l” tarzida talaffuz qilish holatlari uchraydi. Bolalarga muntazam ravishda shunga o‘xhash tez aytishlarni mashq qildirib borish yaxshi samara beradi.

Yosh bolalarda talaffuz qilinishi qiyin bo‘lgan tovushlardan yana biri “sh” undoshidir. Ko‘p hollarda ushbu tovush “s” tarzida talaffuz qilinganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa, albatta, nutqning g`aliz bo‘lishiga, hatto ayrim so‘zlarning ma’nolari o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu tovushni to‘liq va ravon aytishni quyidagi tez aytish orqali o‘rgatish mumkin:

Qishda kishmish pishmasmish,

Kishmish pishsa, qishmasmish.

Mazkur tez aytish juda murakkab hisoblanib, bir nafasda takrorlash ancha qiyin. Bunday tez aytishlarni nutqida nuqsoni bo‘lgan yosh bolalarga qunt bilan o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Nafaqat bolalarda, balki kata yoshli kishilar nutqida ham “k” va “q” tovushlarining aralashib ketishi uchraydi. Ayniqsa, o‘g`uz lahjasi vakillari nutqida bu holat ko‘proq uchraydi. Ushbu tovushlarni mukammal talaffuz qilishni o‘rganish uchun quyidagi tez aytish samarali hisoblanadi:

Oq choynakka ko‘k qopqoq,

Ko‘k choynakka oq qopqoq.

Umuman, nutqiy rivojlanishda tez aytishlarning ahamiyati beqiyos. Bolaning nutqiy qobiliyati shakllanishi hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan muammolardandir. Chunki bolalar har tomonlama rivojlansa, jamiyat ham gullab-yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aqmanova Sh. Ontolingvistika – Urganch, 2018. – B.27.
2. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. - М.: Просвещение. 1987. -C. 87.
3. Rahimova G., Shodiyev F. Bolalarga sonlarga o‘rgatishda xalq og`zaki ijodining roli. ECLSS online 2020, Samarqand.
4. Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz